INGLIZ TILIDAGI LEKSIK–FRAZEOLOGIK SINONIMIK QATORLARNING MA'NOVIY XUSUSIYATLARI

Soliyeva Muhayyo Toirovna, Jizzax politexnika instituti "Xorijiy tillar" kafedrasi dotsenti
e-mail: soliyevamuhayyo@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ingliz tilidagi leksik-frazeologik sinonimik qatorlarning ma'noviy xususiyatlari va o'zbek tilidagi ekvivalentlarining qiyosiy tahlili, ularning leksik tarkibi, o'xshash va farqli jihatlari turli misollar bilan yoritilgan. Nutqimizdagi faol iboralarning ma'no sinonimlari va ularning nutqda bo'yoqdorligini ifodalovchi sinonimlarning dominantlariga ham alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: frazeologik birlik, ekvivalent, dominant, frazeologizm, frazeologik sinonim, frazema, leksik-frazeologik sinonim.

СЕМАНТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ЛЕКСИКО-ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ СИНОНИМИЧЕСКИХ СТРОК В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. В статье на различных примерах освещается сравнительный анализ семантических особенностей лексико-фразеологических синонимических строк в английском языке и их эквивалентов в узбекском языке, их лексического состава, схожих и различных аспектов. Также обсуждаются семантические синонимы активных выражений в нашей речи и доминанты синонимов, выражающих их окраску в речи.

Ключевые слова: фразеологизм, эквивалент, доминанта, фразеологизм, фразеологический синоним, фразеологизм, лексико-фразеологический синоним.

SEMANTIC PROPERTIES OF LEXICAL-PHRASEOLOGICAL SYNONYMOUS LINES IN ENGLISH

Abstract. The article, using various examples, highlights a comparative analysis of the semantic features of lexico-phraseological synonymous rows in English and their equivalents in the Uzbek language, their lexical composition, similar and different aspects. Semantic synonyms of active expressions in our speech and dominants of synonyms expressing their coloring in speech are also discussed.

Keywords: phraseological unit, equivalent, dominant, phraseological unit, phraseological synonym, phraseological unit, lexical-phraseological synonym;

Kirish. Ikki yoki undan ortiq so‘zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma’no ifodalaydigan til birligi frazeologik ibora deyiladi. Frazeologizmlar yaxlitligicha yoki muayyan so‘zning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi asosida yuzaga keladi. Masalan, og‘zi qulog‘ida iborasi tarkibidagi so‘zlar bir butun holda ko‘chma ma’noda qo‘llanib, xursand tushunchasini ifodalagan. Biroq qo‘l ko‘tarmoq birikmasida esa ko‘tarmoq so‘zining ko‘chma ma’noda ishlatilishi iborani vujudga keltirgan. Shu bois ular nutqning erkin sintaktik birliklaridan farqli ravishda, tilning turg‘un birikmalari hisoblanadi.

Frazeologik birliklar orasida ham o‘zaro sinonimik aloqalarga kirishadigan sinonimik qatorlar mavjud. Bu sinonimik qatorlardan ajratib ko‘rsatilgan birliklar umumiy ma’noga, ya’ni keng ma’noga ega bo‘lgan birliklardir. Ba’zan esa, frazeologik birliklar so‘zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo‘ladi. Bunday holatlarda so‘z sinonimik qatorning dominantasi bo‘lib keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolada o‘zbek tilshunoslaridan N. Rahmonov, Q. Sodiqov, Sh. Shoabduraxmonov, Sh. Rahmatullayev, U. Tursunov, X. Doniyorov, R. Qo‘ng‘irov, G‘. Abdurahmonov, B. O‘rinboyev, M. Mirzayev T. Rasulov, S. Tursunovlarning nazariy tadqiqotlari, darslik hamda o‘quv qo‘llanmalariga asos sifatida tayanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuning maqsad vazifalaridan kelib chiqqan holda qiyosiy – tipologik, uslubiy (stilistik), tekstologik, semantik va statistik tahlil qilish metodlariga tayaniladi.

Tahlil va natijalar. Shunday qilib, sinonimik qatordagi har bir iboraning ma’nosini misollar yordamida ochib berishga harakat qilinadi:

A month of Sundays - juda uzoq vaqt

1. Donkey’s years;
2. a month of Sundays;
3. till the cows come home.

A month of Sundays - hazil, ya’ni og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan ibora.Quyida keltirilgan sinonimlariga nisbatan umumiyroq ma’noga ega.

«Juda uzoq vaqt», “qachondir” degan ma’nolarni bildiradi. Ushbu ibora orqali biz voqelikka bo‘lgan ijobiy munosabatni ko‘rishimiz mumkin, ya’ni sodir bo‘lmoqchi bo‘lgan hodisaning qat’iy ravishda “hech qachon” deb emas, balki “qachondir” amalga oshishiga shama qilinayapti.

One little rumour about your being a crank would do more to ruin this business than all the plots and stuff that these fool story-writers could think up in a month of Sundays.

Donkey’s years – cheksiz uzoq vaqt, bir umr, noma’lum uzoq vaqt ma’nolarida qo‘llaniladi. Bu iborada voqelikka nisabatan salbiy munosabat aks etgan. Shuningdek, “eshak yili” ning hech qachon kelmasligini bilamiz va shu tomonlama “never” so‘ziga qisman to‘g‘ri keladi.

I haven’t seen her for donkey’s years. I'd like to see her again and have a chat about old days. [Maugham]

Those old men, Mr. Keidy says, have been there for donkey’s years.

Till the cows come home – og‘zaki nutqqa xos, cheksiz uzoq vaqt,

cheksizlikkacha, bir umrga ma’nolarida qo‘llaniladi. Ushbu iborada ijobiy munosabat aks etgan. Bu ibora XVII-XVIII asrlarda Angliyada keng yoyilgan bo‘lib, keyin esdan chiqarilib ketgan. Lekin AQSHda saqlanib qolgan:

1. Steady Larry! Steady boy! I’m here I’m with you till the cows come home.

2. I’ve got to go now. She insisted. If you like to wait I’ll meet you...about quarter past seven. “Wait? I’d wait for you till the cows come home”.

Ushbu frazeologik sinonimik qatorda “**never**” so‘zi dominanta bo‘lib kelmoqda. Ammo “never” so‘zi orqali biz voqelikka bo‘lgan ijobiy yoki salbiy munosabatni anglay olmaymiz, chunki u neytral so‘z hisoblanib, hodisa yoki shaxsni to‘gridan-to‘g‘ri ifodalaydi va unda hech qanday obrazlilik namoyon bo‘lmaydi. Aksincha, frazeologik birliklar orqali biz voqelikka bo‘lgan munosabatni, obrazlilikni va tasvirlilik darajasi yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, birgina so‘z frazeologik birliklarga ma’no qirrasi va strukturasi, yoki ta’sirlilik doirasi jihatidan mutlaq teng bo‘lolmasligining guvohi bo‘lib turibmiz.

Leksik birlikning frazeologik birliklar bilan ma’lum bir ma’no atrofida birlashib, leksik ma’nosi jihatidan qisman mos kela oladi deyishimiz mumkin.

2. To be in want of money – pulga muhtoj bo‘lmoq

1. Be as poor as a church mouse (rat).
2. Be as poor as Job's turkey.
3. Be hard up.

Be as poor as a **church mouse (rat)** - kambag‘al bo‘lmoq, cherkov sichqonlari kabi kambag‘al bo‘lmok, salbiy ma’noda qo‘llaniladigan, Amerika variantida og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan ibora :

“They haven’t anything, have they?”, “No”, returned Jessica, “they’re poor as church mice”.

Be as poor as Job’s turkey – ulov kabi kambag‘al bo‘lmok, Bibliyadagi “The Book of Job” dan olingan bo‘lib, Avstraliyada ishlatiladigan og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan ibora. Misollar: *The Dalmatians... were miserable immigrants -poorer than Job’s turkey. [London]*

Be hard up – og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan ibora bo‘lib, juda ham pulga muhtoj bo‘lmok, “og‘ir kunga tushmok” ma’nosiga egadir.

Oh, but we may go to the theatre, you see, Mother, and I think I ought to stand the tickets; he’s always hard up: you know. [Galsworthy]

Yuqoridagi misollarimizdan ko‘rinib turibdiki, “**be hard up**” iborasi dominanta bo‘lib hisoblanmokda, chunki uning o‘zi *bir tiyinsiz qolmok, bankrot bo‘lmoq, qiyinchilikning oxiriga etib bormoq, xonavayron bo‘lmoq, og‘ir ahvolda qolmok* kabi ma’nolarni bildiradi.

3. Be one’s own enemy – o‘ziga o‘zi yomonlikni ravo ko‘rmoq.

1. Cook one’s own goose.
2. Kill the goose that laid the golden egg.
3. Be one’s own enemy.

Cook one’s own goose – og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan ibora – “o‘zini o‘zi yo‘q qilmok, o‘z hayotini o‘zi yo‘q qilmoq” kabi ma’nolarni anglatadi.

“Look at this, Helen. They say Max de Winter murdered his first wife. I always

did think there was something peculiar about him. I warned that fool of a girl she was making a mistake, but she wouldn't listen to me. Well, she's cooked her goose now all right".[Galsworthy]

Kill – the goose that laid golden egg - shaxsiy yutuq keltiruvchi manbani yo'q qilmok, o'zi turgan shoxni kesmok, o'ziga foyda keltiruvch manbani o'zi yo'q qilmoq kabi ma'nolarda qo'llaniladi.

Why you'see there's five or six masters who have set themselves again paying wages they have been paying these two earspast... And now they come to us and say we're to take less. And we won't. We'll just... see who, will work for them. They'll have killed the goose that laid them the golden eggs, I reckon. [Galsworthy]

Be one's own enemy – keng ma'noda qo'llaniladigan ibora – "o'ziga o'zi dushman bo'lmoq, o'ziga o'zi yomonlikni ravo ko'rmoq, o'ziga foyda keltiruvchi maskanni yo'q qilmoq" kabi ma'nolari bor. Ushbu ibora boshqa iboralar ichida umumiy ma'noga ega va sinonimik qatorda dominanta hisoblanadi va shu bilan birga bu frazeologik sinonimik qatorga ekvivalent bo'lgan leksik birlik mavjud deb ayta olmaymiz.

Ne is his own worst enemy, you know... We all like a drop to drink, but I fancy that he takes more than most of us.

Make somebody's blood run cold – kimnidir qo'rqitmoq, yuragini qinidan chiqarmoq, kimnidir vahimaga solmoq kabi ma'nolarda qo'llaniladi. Ko'proq bu ibora o'zida salbiy ma'noni aks etadi.

1. Chill somebody's blood
2. Give somebody the creeps
3. Give somebody the shivers/shudders
4. Make somebody's blood/flesh/crawl/creep
5. Make somebody's blood run cold
6. Make somebody's hair stand on end

Make somebody`s blood run cold – kimnidir qo'rqitmoq, yuragini qinidan chiqarmoq, kimnidir vahimaga solmoq, qo'rqqanidan rangini oqartirmoq ma'nolarida keladi. Boshqa sinonimlari ichida umumiyroq ma'noga ega.

He read of dreadful crimes that make his blood run cold (Dick)

Chill somebody's blood –kimnidir juda qattiq qo'rqitmoq, qo'rqinchdan yuragi muzlamoq ma'nolarida keladi.

"Are you ready, Matt dear " in a tone of such forced cheerfulness that it chilled Matthew's very blood.(A. Cr)

Make somebody's blood/flesh/crawl/creep –

Jinny Oates, the cobbler's daughter, being more imaginative, stated not only that she had seen the earrings too, but that they had made her blood creep . (G.El)

Make somebody's hair stand on end – kimnidir dahshatga solmoq, kimnidir cho'chitmoq, og'zaki nutqqa xos bo'lgan ibora .

"You've heard the gorilla, Ralph,…the huge baboon –the man monkey ,… that the niggers on the African coast used to dilate about till they caused the very hair of my head to stand upon end "(R.Bal)

Give somebody the shivers/shudders – ko'proq og'zaki nutqqa xos bo'lgan ibora bo'lib, dahshatga solmoq , o'takasini yormoq ma'nolarida keladi.

That's the bloomed gold country. It gave me the shivers sometimes to look at it – and we were a big lot of men together, mind; but these Gambucinas wandered alone. (J. Conr)

It gave him the shudders, he sai , to mention it now.(J.Conr)

Give somebody the creeps – ogʻzaki nutqqa xos boʻlgan ibora boʻlib, qoʻrqitmoq, seskantirmoq kabi maʼnolarni beradi.

He was the witch doctor. He gave me the creeps, but I liked him anyway. (J.Sal.)

Yuqoridagi sinonimik qatorda "frighten, scare" soʻzlari dominant hisoblanadi.

1. Rain cats and dogs – juda koʻp yomgʻir yogʻmoq, jala quymoq, sharillab yomgʻir yogʻmoq;

1) rain cats and dogs
2) rain in buckets
3) rain in torrents
4) rain like hell
5) rain pitchforks

Rain cats and dogs – juda koʻp yomgʻir yogʻmoq, jala quymoq, sharillab yomgʻir yogʻmoq degan maʼnolarda qoʻllaniladi va nutqda boshqa sinonimlariga qaraganda faolroq ishlatiladi. Shuningdek, sinonimik qatorning dominantasi hisoblanadi. Ushbu ibora orqali kechayotgan fizik hodisaning boʻrttirib koʻrsatilayotganini anglashimiz mumkin yaʼni goʻyoki osmondan yomgʻir kuchukdek yoki mushukdek boʻlib yogʻayotganligi iborada aks etgan.

"The sky's overcast and I bet it's raining cats and dogs on the mountains…" (D. Cus.)

Rain in buckets – Chelaklab yomgʻir yogʻmoq, jala quymoq, oʻta koʻp yomgʻir yogʻmoq maʼnolarida keladi. Oʻzbek tilidagi " paqirlab quymoq" iborasi bilan ekvivalent desak ham boʻladi.

Boy, it began to rain like a bastrad. In buckets, I swear to God (J. Sal.)

Rain in torrents – juda kop yomgʻir yogʻmoq; osmon teshilgandek yomgʻir yogʻmoq; Holatni yuqori darajada boʻrttirib berayotganini yaʼni osmonning hech qachon teshilib qolmasligidan tushunishimiz qiyin emas.

A thunderstorm might blow up any day and rain fallin torrents.(K.R.)

Rain pitchforks – amerika variantida ishlatiladigan ibora boʻlib, juda qattiq va shiddat bilan yomgʻir yogʻmoq maʼnolarida ishlatiladi.

"She was driving like the devil," Brownly said, "and it was raining pitchforks" (E.G.)

Rain like hell – Ogʻzaki nutqqa xos boʻlgan ibora boʻlib, paqirlab yomgʻir yogʻmoq, sharros quymoq degan maʼnolarda ishlatiladi.

And then he looked out of the window and said: "It's raining like hell," and turned to me and cried: "Get out of this room, quick" (Galsw.)

5. Make a mountain out of a molehill – boʻrttirib koʻrsatmoq, oshirib yubormoq, qiyinchiliklarni boʻrttirmoq;

1) Draw /pull/a/the/long bow
2) Lay /put/ it on thick
3) Lay (it) on with a trowel/palette-knife/
4) Lay on the colours

5) Make a mountain out of a molehill

Yuqoridagi leksik-frazeologik sinonimik qatorning dominantasi aniq bir so‘z ya’ni “exaggerate” dir.

Make a mountain out of a molehill – “bo‘rttirib ko‘rsatmoq, oshirib yubormoq, qiyinchiliklarni bo‘rttirmoq, pashshadan fil yasamoq” kabi ma’nolarda qo‘llaniladi. Ushbu ibora nutqda boshqa sinonimlariga qaraganda keng va umumiyroq ma’noda ishlatiladi.

You are making a mountain out of a molehill. They never have epidemics here.(A.Cr.)

Draw /pull/a/the/long bow – juda bo‘rttirib yubormoq, ko‘pirtirmoq, ertak aytmoq kabi ma’nolariga ega.

possibly the report he hhad given of his prowess at the Rockcliff sports was coloured by a native talent for drawing the long bow. (A.Cr.)

King of Corpus (college), who was incorrigible wag, was on the point of pulling some dreadful long bow. (W. Thack.)

Lay on the colours – qo‘shib chatmoq, ko‘paytirmoq, rang bermoq kabi ma’nolarda ishlatiladi. Ko‘proq yumorga oid bo‘lgan ibora bo‘lib, o‘zbek tilidagi og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan “gapini yamab, kista, eng qo‘shib gapiradi” iborasiga mos keladi.

So disengaged and calm was he, ... where another would have been sparkling and laying on the colours, that he was then and there offered Admiral’s rank in the Imperial navy…(G.M.)

Lay /put/ it on thick – Og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan ibora hisoblanadi va bo‘rttirmoq, qo‘shib chatmoq, ko‘pirtirmoq degan ma’nolarda qo‘llaniladi.

Probably I’ve told one or two fairy stories in my time, when the occasion called for it – you know: sometimes you have to lay things on thick, to impress bone-heads. (S. Lew.)

The first thing is to exaggerate my injuries. They’ll come to you for news. Put it on thick, Watson. (C. D.)

Lay (it) on with a trowel/palette-knife/ – Og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan ibora bo‘lib, yanada dag‘allashtirmoq,oshirmoq degan ma’nolarda qo‘llaniladi.

“Oh, no, it was really a clever bit of deduction on your part. You’d deduced from the bidding exactly where the cards must be, and you played accordingly. I thought it was brilliant. ”

Lady Julia rose abruptly.

“The woman lays it on with a palette – knife,” she thought disgustedly. (Chr.)

5. Keep something secret – nimanidir sir tutmoq, biror narsa haqida aytib qo‘yishdan saqlanmoq;

1. Keep a quiet/ still / tongue in one’s head
2. Keep a secret
3. Keep mum
4. Keep one’s own counsel
5. Keep something close
6. Keep something dark
7. Keep something hush- hush

8. Keep something quiet
9. Keep something secret
10. Keep something to oneself
11. Keep something under one`s hat
12. Seal one`s lips / mouth /

Keep something secret – nimanidir sir tutmoq, biror narsa haqida aytib qo‘yishdan saqlanmoq, sir saqlamoq, nimanidir yashirmoq kabi ma’nolarda keladi va sinonimik qatorda dominanta vazifasini bajaradi.

How the rumor arose, then, that “something very dreadful, my dear,” was pending, no one, least of all Soames, could tell, secret as he kept everything. (Galsw).

Keep a secret – sir tutmoq, sir saqlamoq kabi ma’nolarda keladi.

I f you lik to tell me, I assure you I can keep secret. (Ch.)

Keep something quiet – og‘iz ochmaslik, churq **e**tmaslik, bir so‘z demasliq

As John West walked back to the tote he said: “Keep this quiet. Not a word.” (F.H.)

Keep something close – o‘ta qattiq sir tutmoq, kimdandir mahfiy tutmoq;

“Then what does he do it for, and why does he keep it so close from you?” said Mrs. Nubbles. (Dick)

Keep something dark – qattiq sir tutmoq, biror narsani yashirmoq, mahfiy tutmoq;

the police had taken care to keep it dark ... that when they had gone through Joardan’s room, ... they had found fragments of a broken watchglass. (S.M.)

Seal one’s lips / mouth / - sir saqlamoq, og‘ziga qulf osmoq, biror narsani berkitmoq, tili tanglayiga yopishib qolmoq kabi ma’nolarda keladi.

Her inclination had been to ask Edward frankly; but he had potently sealed his lips upon the subject. (A.Cr.)

Keep something to oneself – biror narsani gapirmaslik, ichiga yutmoq demakdir.

I was too full of my desperate intentions to keep my altered circumstances to myself, I made them known to Mr, and Mrs. Micawber. (Dick.)

Keep one’s own counsel – biror narsa yuzasidan boshqalarga o‘z fikrini bildirmaslik, aytmaslik, sirli bo‘lmoq kabi ma’nolarda ishlatiladi.

“Humph!” said Mr.Swiveller pondering , “this is queer. Nothing but mysteries in connection with Brass’s house. I`ll keep my own counsel, however. Everybody and anybody has been in my confidence as et, but now I think I`ll set up in business for myself...” (Dick.)

Keep mum – lom-mim demaslik, churq etmaslik, mum tishlashlik degan ma’nolarda qo‘llaniladi.

“I want you two to keep mum. If it comes out, it can’t be helped, but I beg that you’ll neither of you say anything.” (Galsw.)

Keep a quiet/ still / tongue in one`s head – Jim yurmoq, tilini tishlamoq, sir boy bermaslik degan ma’nolari mavjud.

“You’ll keep a quiet tongue in your head, will you?” said Monks, With a threatening look. “I am not afraid of your wife.”(Dick.)

Keep something under one’s hat – biror narsani shlyapa ostiga berkitmoq, sir

tutmoq, yashirmoq, hech kimga bir so‘z demay ya’ni *yopiq qozon yopiqligicha qolmoq* degan ma’nolarda keladi va og‘zaki nutqda keng qo‘llaniladi.

“But you’ll never guess who my new boss is,” he told Morris laughingly. “Strictly in confidence, I can tell you, Morrey, though it`s got to be kept under your hat. ... ” (K.P.)

Keep something hush- hush – Og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan ibora bo‘lib, sir boy bermaslik, yashirmoq, berkitmoq, nimanidir qattiq sir tutmoq, isini chiqarmaslik kabi ma’nolarni anglatadi.

“I’m by way of being engaged to him.”

“And he brought you down here to introduce you to his people?”

“Oh, dear no, nothing like that. We were keeping it very hush-hush. ...”(Chr.)

Albatta, qisqa birgina so‘z bilan og‘zaki va badiiy nutqdagi fiziologik yoki inson ruhiyatida kechayotgan o‘zgarishlarning salbiy yoki ijobiy jihatlarini, uslubiy bo‘yoqdorligini ifodalash mushkuldir. SHuningdek, ushbu jihatlari bilan so‘zni frazeologik birliklarga mutlaq teng deb ayta olmaymiz.

Xulosa. Nutqimizda faol sodir bo‘ladigan sinonimlik hodisasi nafaqat leksik birliklar doirasida, balki frazeologik birliklar orasida ham juda ommalashgan.

Frazemalarning ayni bir ma’noni anglatishi asosida guruhlanishi frazeologik sinonimiya deyladi. Frazeologik birliklar ba’zan so‘zlar bilan ham sinonim bo‘lib keladi. Leksik frazeologik sinonimiyada frazemada o‘z ma’no qirrasiga ko‘ra, uslubiy bahosiga ko‘ra o‘z sinonimi bo‘lgan leksemadan keskin farq qiladi. Nimanidir frazema bilan anglatish, odatda leksemaga qaraganda ta’sirchan bo‘ladi. Leksik frazeologik sinonimiyada leksema dominant hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamroyev M. A. Ona tili. – Toshkent, 2008. 26-b.
2. Yusupov O‘. Q. Ingliz va o‘zbek tillarining chog‘ishtirma lingvistikasi. – Toshkent, 2013. 22-23-b.
3. Arnold. English word. p.77-197
4. Хозирги ўзбек адабий тили, – Тошкент, 1980.
5. Мирзаев М ва бошкалар. Ўзбек тили. – Тошкент, 1978.
6. Неъматов Х. Расулов Р Ўзбек тили системлексикологияси асослари. – Тошкент, 1995.
7. Orifjonova Sh. O‘zbek tilida lug‘aviy graduonimiya. NDA. – Toshkent, 1996.
8. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент, 1981